

Sharif Rashidov nomidagi Samarqand davlat chet tillar instituti Magistratura bo'limi boshlig'i, Psixologiya fanlari doktori, professor Saidov Azamat Ismoilovich taqrizi ostida

### O'SMIRLARNING – PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA NOTO'LIQ OILA MUHITINING TA'SIRI

*Raxmonova Nargiza Umedjonovna*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Email: [raxmonovanargiza476@gmail.com](mailto:raxmonovanargiza476@gmail.com)

*ORCID ID : 0009-0007-6056-208X*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida noto'liq oilalarda voyaga yetgan o'smirlarning psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Noto'liq oilalarda voyaga yetgan o'smirlarning shaxs xususiyatlarini psixologik tahlili, noto'liq oilada tarbiyalangan o'smirlarda xulq-atvor shakllanishining nazariy va amaliy tahlili yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smir, oila, muhit, oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, g'azab va xavotir, mustaqillik va o'zini-o'zi boshqarishdagi qiyinchiliklar, o'ziga zararli xatti-harakatlar, oilada bola tarbiyalashda uchraydigan kamchiliklar.

### ВЛИЯНИЕ НЕПОЛНОЙ СЕМЬИ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПОДРОСТКОВ

*Рахмонова Наргиза Умеджоновна*

*Магистр Самаркандского государственного университета имени*

*Шарафа Рашидова по специальности Психология*

**Аннотация:** В данной исследовательской работе основное внимание уделяется психологическим особенностям подростков достигших совершеннолетнего возраста в неполноценных семьях. Оснащен психологический анализ особенностей личности подростков, достигших совершеннолетия в неполных семьях, теоретический и практический анализ формирования поведения подростков воспитывающихся в не полных семьях.

**Ключевые слова:** Подросток семья, окружающая среда, социально-психологические особенности семьи, неуверенность в себе, трудности в социальной адаптации, гнев и тревога, сложности в самостоятельности и самоконтроле, самоутверждение в поведении недостатков в воспитании детей в семье.

### THE INFLUENCE OF THE ATMOSPHERE OF AN UNSTABLE DEVELOPMENT OF ADOLESCENTS

*Rakhmonova Nargiza Umedjonovna*

*Master's degree student of psychology from*

*Samarkand State University named after SHarof Rashidov*

**Annotation:** This research work focuses on the psychological characteristics of adolescents who have reached adulthood in dysfunctional families. A psychological analysis of the personality characteristics of the adolescents who have reached adulthood in dysfunctional families, a theoretical and practical analysis of the formation of behavior in a dysfunctional family are covered.

**Keywords:** Adolescent, family, environment, socio-psychological characteristics of the family, self-insecurity, difficulties of social adaptation, anger and anxiety difficulties in independence and self-control, self-destructive behavior, shortcomings found in raising a child in the family.

O'smirlik davri- shaxsning psixologik jihatdan rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. O'smirlik yoshidagi shaxs o'zini kashf qilish, shaxslararo munosabatlarga kirishish, jamiyatga va jamiyatdagi insonlarga qo'shilish, atrof-muhitga moslashish, o'z-o'zini boshqarish kabi faoliyatlar bilan band bo'ladi. Ammo, noto'liq oila muhiti ushbu jarayonlarni yetarlicha o'zgartirib yuboradi. Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlarning psixologiyasi juda murakkab va ko'p jihatdan noyobdir. Ota-onaning yo'qligi yoki ularning birgalikda yashamaganligi bolaning hayotiga har xil usullar bilan ta'sir qilishi mumkin.<sup>1</sup> Ajralish natijasida shakllangan to'liq bo'lmagan oilalarning bolalari ikki ota-onasi bo'lganlarga qaraganda o'rta maktabni bitirguncha qadar maktabni tark etish ehtimoli ikki baravar ko'p, ular kollejga borish ehtimoli yarmidan kam hamda kollejni bitirish ehtimoli kamroq.

Noto'liq oiladagi o'smirlar o'zlariga zararli xatti-harakatlarda qatnashishga moyil bo'lishadi. Masalan, giyohvand moddalari hamda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish shular jumlasidandir. Bunday harakatlar ishonchsizlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, g'azab va xavotir bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

<sup>2</sup>“ Noto'liq oilada o'sgan o'smirlar ko'pincha hissiy barqarorlikda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki ular uchun ota yoki ona rolidagi figurani yo'qotish ijtimoiy o'zaro munosabatlar va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini izdan chiqarishi mumkin” Noto'liq oilalarda voyaga yetgan o'smirlarga ta'siri keng va murakkabdir. O'smirlarning ota-onalarining ajralishi, vafot etishi yoki ota-onaning bo'lmaganligi ijtimoiy-psixologik, jismoniy rivojlanishiga turli xil ko'rinishlarda ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirlarni bir necha jihatlardan tahlil qilamiz:

### 1. Emotsional rivojlanish

\* Ota-ona mehri muhtoj va bo'shliq hissi: Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smir ko'p holat va vaziyatlarda ota yoki onadan biri bilan emotsional munosabatlarning passivligini his qiladi. Buning natijasida o'smir o'zini tashlandiq, yakka hamda sevgidan mahrum qolgan farzanddek o'ylaydi.

<sup>1</sup> R.A. Emery, 1999-y. Divorce and Child Development 505-bet

<sup>2</sup> N.A. Bekmurodov (2019-yil) Oilaviy muhit va o'smirlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti

\* Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlar o'z-o'zini anglashdagi muammolar: Oiladagi yo'qotish yoki bo'shliq ( masalan,ota-onaning yo'qligi ) o'zini qadrsiz deb baholashiga olib keladi.

\*Xavotir va stress:O'smirlarning ota-onalarining ajralishi,ota-onaning yo'qligi yoki ota-onaning ikkalasiniyam yo'qligi haqida o'ylashlari bilanoq g'azablanish xavotirlanish kabi psixologik holatlar kuzatiladi.Buning natijasida xavotir va stress o'smirning o'qish faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarida va umuman olganda hayoti davomida ko'plab psixologik qiyinchiliklar olib keladi.

## 2.Ijtimoiy rivojlanish

\*Tengdoshlari bilan munosabatlari : O'smir o'z oilaviy muhitidan kelib chiqib fikr yuritadi ya'ni “ men boshqachaman, boshqalardan ajralib turaman” degan tushuncha o'smirning tengdoshlari bilan munosabatlarini yetarli darjada murakkablashtiradi.

\*Jamiyatdagi o'rni : Ayrim holatlarda noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlar jamiyatga noto'g'ri tasavvur yoki kamsitishga uchrashi mumkin.Buning natijasida o'z-o'zini himoya qilish bilan birga ishonchni yo'qotish xususiyatlarini kuchaytiradi.

## 3.Akademik va intellektual rivojlanish

\*G'azab va tajovuz: O'smirlar ota-onalarining ajralishini adolatsizlik deb tushunish bilan bir qatorda ularda g'azablanish hamda tajovuzkorlik do'stlariga nisbattan sezilarli darajada yuqori bo'lishi aniqlangan.Darhaqiqat, ushbu holat o'smirning o'ziga balki atrof-muhitga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

\*Depressiya: Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlarda depressiyaga moyillik kuzatiladi.Bunday shaxslar o'zlarini befarq, umidsiz va yolg'iz his qiladi.

\*Mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish qiyinchiliklari: Noto'liq oilada tarbiyalangan bolalar o'zini o'zi boshqarish va mustaqillik qiyinchiliklariga duch kelishi mumkin.Bu o'smirlar o'zlarini o'zlari boqish 'uy vazifalarini bajarish va hayotdagi kichik qarorlarni qabul qilish uchun tayyor emas deb hisobllanishlari mumkin.

\*O'ziga bo'lgan ishonchning pastligi:o'smirni uning kuchli tomonlarini ko'rishga ,uning qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

\*Ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar :o'smirni ijtimoiy tadbirga qo'shilishga ,yangi do'stlar orttirishga ,boshqa bolalar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatishni ta'minlaydi.<sup>3</sup> Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlarning ruhiy rivojlanishida turli darajadagi muammolar kuzatiladi.ular ko'pincha oilaviy strukturadagi yetishmoqchilikni hissiy qo'llab-quvvatlashning yetarli darajadagi emasligi sifatida qbul qiladilar.Bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin ” deb ta'kidlagan.

\*Sog'liqni saqlash muamolari :Noto'liq oilada kata bo'lgan bo'lgan bolalar turli xil sog'liqni saqlash muammolariga moyil bo'lishlari mumkin: masalan,ovqatlanish buzilishi,uyqusizlik,bosh og'rig'i va boshqa holatlar kuzatiladi.

<sup>3</sup> S.M.Xolmatov 2020-yil O'smirlik davri psixologiyasi Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti

\*Giyohvand moddalarni iste'mol qilish :Noto'liq oilada tarbiyalanga aksariyat bolalar giyohvand moddalarni iste'mol qilishga moyil bo'lishlari mumkin .Bu xatti harakatlar g'azab va xavoyirni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, to'liq bo'lmagan oila sharoitida voyaga yetgan o'smirlar psixologiyasi ko'p qirrali hamda juda murakkabdir. Shuningdek, o'smirlarning rivojlanishiga noto'liq oila muhiti salbiy ta'sir ko'rsatadi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota yoki onadan birini yo'qligi,oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning qo'llab-quvvatlamay qolishi, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammoli vaziyatlarga olib kelishi shu bilan birga o'ziga bo'lgan ishonchni pastligiga zamin yaratadi.Bundan tashqari, noto'liq oilalarda voyaga yetgan o'smirlar ko'plab holatlarda ijtimoiy-adaptatsiyaning yuqoriligi,qobilyatlarini rivojlantirish va irodaviy chidamlilik xususiyati strategiyalarini yaratadi.Bunday holatlarda ( oilaviy muhit ta'lim muassasalari, jamiyat,tengdoshlari ) muhm rol o'ynaydilar.

Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlarning ota-onasi yoki vasiy uchun muhim eslatma va tavsiyalar

1. Ota-onalar o'zlarining ajralishdan keyin ham farzandlari bilan ishonchli aloqalarni saqlab turishlari;
2. Bolalarning his-tuyg'ularini tushunish hamda har qanday vaziyatda ham qo'llab-quvvatlash;
3. Noto'liq oilada voyaga yetgan o'smirlarning muvaffaqiyatli va sog'lom muhitda hayot kechrishini ta'minlash;
4. O'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.A.H.Maslow 1943 year A Theory of Human Motivation Psychological Review 370-396
- 2.J.E.Marcia 1980-year Identity in Adolescence in Adelson J( Ed ) Handbook of Adolescent Psychology Wiley
- 3.N.A.Bekmurodov 2019-yil Oilaviy muhit va o'smirlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik.Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti
- 4.R.A.Emery 1999-yil Divorce and child devolepment 505-bet
- 5.R.B.Muminova 2021-yil Oilaviy omillar va o'smirlik yoshidagi shaxs shakllanishi.Toshkent: Fan va Texnologiya
- 6.S.M.Xolmatov 2020-yil Osmirlik davri psixologiyasi Toshkent : O'zbekiston Milliy Univesiteti Nashriyoti